

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

O'zbekiston davlat san'at  
va madaniyat instituti

rektori v.v.b.

E.L. Shermanov



2023-yil

21.106

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**

**60112400 – Professional ta'lim (60211900 - Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi))  
ta'lim yo'nalishi uchun**

- 1. Maxsus cholg'u fanidan**
- 2. Dirijorlik va musiqiy-nazariy fanlaridan**

Toshkent - 2023

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023-yil \_\_ \_\_-sonli majlis bayoni.

#### Tuzuvchilar:

O'.Toshmatov - O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedresi professori

**Taqrizchilar:**  
K.Shermatov - O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedresi dotsenti

B.Mirpayazov O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedresi professori

#### Kirish

60112400 – Professional ta'lim (60211900- Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni dasturi hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalariga"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisoslik uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi, har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalar ko'rsatiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga kirayotganlarga, yil mobaynida va imtihonlar oldidan konsultatsiyalar o'tkaziladi. Konsultatsiyalarning maqsadi – qabulning shartlari bilan tanishish, shu oliy o'quv yurtiga kirishni hohlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlashdir. Konsultatsiyalar mobaynida pedagoglar, abituriyentlarni tanlagan ixtisosiga o'qitish imkoniyatiga qarab, o'z tavsiyalarini berishadi.

Konsultatsiyalar davomida abituriyentga ta'lim yo'nalishi va maxsus cholg'u hamda dirijorlik fanlaridan tayyorlagan asarlari haqida tushunchalar beriladi.

#### Fanning maqsadi va vazifalari

60112400 – Professional ta'lim (60211900- Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishi abituriyentlarining cholg'u ijrochiligi bo'yicha mahoratini, musiqiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda xizmat qiladigan Maxsus cholg'u, Dirijorlik. asoslari. Dirijorlik, musiqiy-nazariy fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlarini ya'ni tayyorlagan asarlarini amaliy tarzda ijro etadilar.

Kirish imtihon ballari quyidagicha taqsimlanadi:

1. Maxsus cholg'u – 93 ball
2. Dirijorlik va musiqiy-nazariy fanlaridan – 63 ball

#### Maxsus cholg'u fani bo'yicha

Maxsus cholg'u fanidan kirish imtihonida abituriyent 4 ta musiqiy asarni o'zi tanlagan cholg'uda ijro etib berishi, ushbu asarlarni tahlil qila olishi va og'zaki savollarga javob berishi lozim.

Asosiy tanlagan cholg'uda ijro etiladigan asarlar (ijro dasturi)ga qo'yiladigan talablar:

- asarlarning kamida bittasi yirik shakl (masalan: konsert, sonata, simfoniya, uvertyura va boshqa)da yozilgan bo'lishi kerak;
- asarlarning kamida bittasi o'zbek kompozitorlari yoki bastakorlarining original asarlaridan yoki qayta ishlangan o'zbek xalq kuylaridan (qo'shiqlaridan) bo'lishi kerak;
- asarlarning kamida bittasi o'zbek xalq kuylaridan yoki o'zbek mumtoz kuylaridan bo'lishi kerak;

- asarlarning kamida bittasi qardosh kompozitorlar asarlaridan bo'lishi kerak;
- asarlarning eng kamida ikkitasi fortepiano jo'rligida ijro etilishi talab qilinadi;
- asarlar turlicha xarakterda bo'lishi kerak;
- musiqiy asarlar abituriyentning ijrochilik bo'yicha mahoratini ko'rsata olishiga xizmat qilib, temp o'zgarishlari, dinamik o'zgarishlar, turli xil shtrixlar rang-barangligini namoyish etish imkoniyatini yarata olishi tavsiya etiladi;
- barcha musiqiy asarlarning klaviri (konsertmeyster uchun beriladigan nota matnlari)ni abituriyentning o'zi olib kelishi, nusxa qilingan nota matnlarining sifati yaxshi bo'lishi kerak.

#### Dirijorlik va musiqiy-nazariy fanlari bo'yicha

Dirijorlik fanidan kirish imtihonida abituriyent 2 ta musiqiy asarga dirijorlik qilib berishi, ushbu asarlarni fortepiano yordamida tahlil qilib, og'zaki savollarga javob berishi lozim.

Dirijorlik qilinadigan asarlar (ijro dasturi)ga qo'yiladigan talablar:

- asarlarning bittasi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri partiturasidan (yoki simfonik orkestr partiturasidan) dirijorlik qilinishi kerak;
- asarlarning bittasi o'zbek va jahon kompozitorlari asarlaridan bo'lishi kerak;
- asarlar turli xarakterda va turli o'lchovda bo'lishi kerak;
- musiqiy asarlar abituriyentning dirijorlik bo'yicha mahoratini ko'rsata olishiga xizmat qilib, temp o'zgarishlari, dinamik o'zgarishlar, o'ng va chap qo'l harakatlarining rang-barangligini namoyish etish imkoniyatini yarata olishi tavsiya etiladi;
- barcha musiqiy asarlarning klaviri va partiturasini, konsertmeyster uchun beriladigan nota matnlarini abituriyentning o'zi olib kelishi kerak;
- nusxa qilingan nota matnlarining sifati yaxshi bo'lishi, solo bilan dirijorlik qilinadigan asarlarga abituriyentning o'zi ijrochilarni tanlashi va taklif qilishi kerak;

Fortepiano ijrosiga qo'yiladigan talablar:

- tanlangan ikkita asar turli temp va xarakterda bo'lishi kerak;
- asarlarning bittasi o'zbek kompozitorlari asarlaridan yoki qayta ishlangan xalq kuylaridan bo'lishi lozim.

Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha ijodiy imtihon ikki qismdan iborat bo'lib, bunda abituriyentning Musiqa nazariyasi va Solfedjio bo'yicha imkoniyatlari aniqlanadi.

**Musiqa nazariyasi** bo'yicha abituriyent musiqaning elementar nazariyasi fanini mukammal bilishi, qoidalar ketma-ketligini aytib bera olishi darkor. Bunda abituriyent musiqi nazariyasi fanidan musiqiy misollarni ishlashi (tonalliklarda hamda berilgan tovushlardan intervallar, akkordlar va septakkordlarni tuzib berish), musiqiy asarni tahlil qilishi orqali o'z imkoniyatlarini namoyon etadi.

Musiqa nazariyasi faniga qo'yiladigan talablar:

- intervallar, akkordlar va septakkordlarni tuzish;
- musiqa nazariyasi fanidan og'zaki savol-javob (kollokvium).

**Solfedjio** bo'yicha abituriyentning bilimi uning eshitish qobiliyati, nota matnini to'g'ri kuylashini tekshirish orqali aniqlanadi.

Solfedjio faniga qo'yiladigan talablar:

- bir va ikki ovozli solfedji odan musiqiy namunalarni kuylab berish;
- eshitish qobiliyati (intervallar, akkordlar, septakkordlar, ladlar ijro etiladi va abituriyent fortepianoga teskari turgan holda eshitib aniqlaydi).

#### Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

**Maxsus cholg'u** fanidan abiturient tomonidan tanlangan cholg'uda asarlar ijro etib bo'lingandan keyin komissiyaning talabiga ko'ra, o'zbek musiqa cholg'ulari tarixi, mashhur cholg'uchilar ijodi, ijro etilgan asarlar mualliflarining ijodiy faoliyati, asarlarda uchraydigan ijrochilik talqini bilan bog'liq savollar hamda tegishli musiqa asarining shakli, undagi mavzu, fraza, kuy, akkompament va boshqa tomonlari tahlil qilib berilishi hamda asar xarakteri haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

**Dirijorlik va musiqiy-nazariy** fanlaridan abiturient tomonidan asarlar dirijorlik qilib bo'lingandan keyin komissiyaning talabiga ko'ra tegishli musiqa asarining shakli, undagi mavzu, fraza, kuy, akkompament va boshqa tomonlarini fortepiano cholg'usi yordamida tahlil qilib berilishi hamda dirijorlik san'ati tarixi, mashhur dirijorlar ijodi, dirijorlik qilingan asarlarni mualliflarining ijodiy faoliyati, asarlarda uchraydigan dirijorlik holatlari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi, fortepianoda asar ijro etib berishi, berilgan tonalliklar hamda tovushlardan intervallar, akkordlar, septakkordlar tuzishi, musiqiy tahlil, bir va ikki ovozli musiqiy namunalarni kuylashi kerak.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan ijro etilgan asarlar va javoblar quyidagi mezon asosida baholanadi:**

**Maxsus cholg'u fani bo'yicha**

| T.r. | Talabning mazmuni  | Maksimal ball |
|------|--|---------------|
| 1.   | Abituriyentning tashqi ko'rinishi, odobi va muomala madaniyati   | 6             |
| 2.   | Ijro dasturlarining barcha talablar asosida to'liq shakllanganligi                                     | 8             |
| 3.   | Asosiy cholg'uda postanovkaning to'g'ri qo'yilganligi  | 6             |
| 4.   | Ijro texnikasining shakllanganligi, o'ng va chap qo'l vazifalarining to'g'ri bajarilishi va uyg'unligi | 8             |
| 5.   | Asosiy cholg'uda ijro jarayonida konsertmeyster bilan birgalikdagi ijroda uyg'unligi                   | 10            |
| 6.   | Asosiy cholg'uda ijro jarayonida dinamik tuslarning ifodalanishi                                       | 7             |
| 7.   | Asosiy cholg'uda ijro jarayonida ijro sur'ati (templar)ning to'g'ri talqini                            | 10            |
| 8.   | Asosiy cholg'uda ijro jarayonida shtrixlar (legato, stakkato, markato va boshqa)ning aniq ifodalanishi | 7             |

|             |   |           |
|-------------|---|-----------|
| 9.          | Asosiy cholg'uda ijro etilgan asarlarning sifati va talqini uchun                             | 10        |
| 10.         | So'ralgan asarni tahlil qilib berish  | 7         |
| 11.         | Cholg'u va cholg'u ijrochiligi tarixi, texnikasi, nazariyasi bo'yicha savollarga javob berish | 6         |
| 12.         | Asar muallifi va unda uchraydigan holatlarni ifodalab berish bo'yicha savol va topshiriqlar   | 8         |
| <b>jami</b> |   | <b>93</b> |

#### Dirijorlik va musiqiy-nazariy fanlari bo'yicha

| T.r.        | Talabning mazmuni  | Maksimal ball |
|-------------|--|---------------|
| 1.          | Ijro dasturining barcha talablar asosida shakllanganligi   | 3             |
| 2.          | Dirijorlik apparatining shakllanganligi (dirijorlik postanovkasi, qo'l, oyoq, gavda, boshning dirijorlarga xos harakatlanishi)           | 3             |
| 3.          | O'ng va chap qo'l vazifalarining to'g'ri taqsimlanganligi  | 3             |
| 4.          | Partitura bilan ishlash mahorati   | 3             |
| 5.          | Dirijorlikda dinamik tuslarning ifodalanishi   | 3             |
| 6.          | Dirijorlikda ijro sur'ati (templar)ning to'g'ri ifodalanishi   | 3             |
| 7.          | Dirijorlikda shtrixlar (legato, stakkato, markato va boshqa)ning aniq ifodalanishi   | 3             |
| 8.          | Auftaktlarning aniq ifodalanishi   | 3             |
| 9.          | Musiqi xarakterini his etish va ifodalashda qo'llarning erkinligi, konsertmeyster bilan muloqotda erkinlik va uyg'unlik                  | 4             |
| 10.         | Dirijorlik tayoqchasidan to'g'ri foydalanish   | 2             |
| 11.         | Dirijorlik tarixi, texnikasi, nazariyasi bo'yicha savollarga javob   | 5             |
| 12.         | Asar muallifi va unda uchraydigan holatlarni ifodalab berish bo'yicha savol va topshiriqlar ijrosi                                       | 5             |
| 13.         | Fortepianoda asar ijro etib berish.  | 5             |
| 14.         | Musiqi nazariyasi fanidan berilgan tonalliklar hamda tovushlardan intervallar, akkordlar, septakkordlar tuzish.                          | 4             |
| 15.         | Musiqi nazariyasi fanidan og'zaki savol-javob.   | 4             |
| 16.         | Musiqiy tahlil (berilgan asarni funksiyalarini aniqlash)   | 4             |
| 17.         | Bir va ikki ovozli musiqiy namunalarni kuylash   | 3             |
| 18.         | Eshitish qobiliyatini tekshirish (abituriyentni eshitish qobiliyati akkordlar, septakkordlarni qay darajada eshitishi orqali aniqlanadi) | 3             |
| <b>JAMI</b> |  | <b>63</b>     |

#### Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60112400 – Professional ta'lim 60211900 – Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) bakalavr ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda yakka tartibda maxsus cholg'u (nay, chang, qonun, rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas, doira, g'ijjak, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas), dirijorlik va musiqiy-nazariy fanlaridan o'z imkoniyatlarini namoyon etadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Ijodiy imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

#### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

#### Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.//Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
4. Islomov D. Maxsus cholg'u (doira usullari: ustozlar saboqlari) O'quv qo'llanma. Fan va texnologiya. –Toshkent: 2015 yil
5. Shermatov K. Maxsus cholg'u (qonun sinfi). Darslik. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2019 yil
6. Xakimova F. Maxsus cholg'u (afg'on rubob sinfi). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2019 yil
7. Toshmatov E. Dirijorlik. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
8. Azimov K. O'zbekiston dirijorlari. –Toshkent: "MAGIKA" MЧЖ, 2001 yil
9. Sedix T. Fortepiano o'quv qo'llanma Toshkent: Navro'z nashriyoti 2019 yil
10. Azimov X. Fortepiano darsligi Toshkent: O'qituvchi nashriyoti 1998 yil
11. Vaxromyev V. Musiqaning elementar nazariyasi/ maxsus muharrir T.G'ofurbekov. O'zbekcha ikkinchi nashri. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti 1980 yil.
12. Ibroximov O.Kamalova D.Solfedjio O'quv qo'llanma, Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti 2018 yil

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini professori O. Toshmatov tomonidan  
2023-2024 o'quv yilida  
60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi))  
bakalavriat ta'lim yo'nalishi abituriyentlaridan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni  
o'tkazish uchun tuzilgan dasturiga  
**TAQRIZ**

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimiga bo'lajak talabalarni o'qishga qabul qilish uchun abituriyentlardan kasbiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlardan musiqa ijrochilik san'atini egallaganligini aniqlash maqsadida kafedra kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy sohada bilim va malakalarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning cholg'u ijrochiligi, cirijerlik, musiqa nazariyasi, solfedjio va fortepiano fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha o'tkaziladi. Jumladan: Maxsus cholg'u fanida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik mahoratini badiiy ijro orqali to'rt xil asarlarda namoyish etadi. Dirijyorlik fanida musiqiy asarlarni his qilish va ifodalash, qo'l xarakterlarining tavsifi aniq belgilangan. Musiqa nazariyasi, solfedjio va fortepiano fanlaridan musiqa ijrochiligiga oid nazariy va amaliy bilimlar majmuasi keltirilgan.


Dasturdan joy olgan fanlar bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablarining malaka talabari va namunaviy dasturlari asosida o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan davlat talablari asosida tuzilgan hamda davlat talablariga mos keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib 60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida OTMga kirish uchun tuzilgan mazkur dasturni amaliyotga tavsiya etaman.

O'zDSMI

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini dotsent

K.Shermatov



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini professori O. Toshmatov tomonidan  
2023-2024 o'quv yilida  
60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti  
(cholg'u ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishi abituriyentlaridan  
kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish uchun tuzilgan dasturiga  
**TAQRIZ**

Respublikamizdagi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ga asosan bo'lajak mutaxassislarni jahon andozalari darajasida tayyorlash ko'zda tutilgan. Buning uchun oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimida abituriyentlardan kasbiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlaridan musiqa ijrochilik layoqatini aniqlash maqsadida kafedralarda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, 60112400 - Professional ta'lim (60211900- Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavr ta'lim yo'nalishida maxsus cholg'u (nay, chang, qonun, rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas, doira, g'ijjak, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas), dirijyorlik, musiqa-nazariyasi, solfedjio, garmoniya va fortepiano mutaxassislik fan dasturi asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasi baholanadi. Bunda Maxsus cholg'u fanida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik mahoratini badiiy ijro orqali to'rt xil asarlarda namoyish etadi. Dirijyorlik fanida musiqiy asarlarni his qilish va ifodalash, qo'l harakatlarning tavsifi aniq belgilangan. Musiqa nazariyasi, solfedjio va fortepiano fanlaridan musiqa ijrochiligiga oid nazariy va amaliy bilimlar majmuasi keltirilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, 60112400 - Professional ta'lim (60211900- Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun mutaxassislik fanidan tayyorlangan kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonini amaliyotga tavsiya etaman.

O'zDK

"Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasini  
professori

B.Mirpayazov

